



SAMARQAND VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI





# SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2024-yilning yanvar oyi uchun  
dastlabki ma'lumot)*



## Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 1 782,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 107,2 % ni tashkil etdi.

yanvar  
mlrd. so'm



yanvar  
FHI, %






■ mlrd. so'm ■ FHI %

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jomboy tumanida (1 704,0 ming so'm) hamda Samarqand shahrida (1 334,4 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





■ ming so'm    ■ o'sish sur'ati, %

## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2024-yil yanvar oyida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 1 953,0 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,7 % ni, tashkil etdi.




2024-yilning yanvar oyida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (38,2 %), Jomboy tumani (15,8 %), Toyloq tumani (8,2 %), hamda Urgut (8,1 %) tumanlari hissasiga tog'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Toyloq tumanida (112,3 %), Samarqand tumanida (112,2 %) hamda Nurobod tumanida (109,5 %) kuzatildi.



## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2024-yil yanvar oyi

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 3,0 martaga, Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning 18,2 % ga, Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilishda 11,0 % ga hamda Ishlab chiqarish 3,6 % ga oʻsishi kuzatildi.

### Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,9 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati

*O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda*



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,9 % ni (2023-yilning yanvar oyida 0,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali 13,0 % (12,4 %), o'rta-quyi texnologiyali 18,0 % (13,3 %) va quyi texnologiyalisi 64,9 % (71,4 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,9 % (2023-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 131,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi 10,0 % (2023-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 107,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 24,8 % (2023-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 97,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 40,1 % (2023-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 90,1 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	9,7	4,7	- 5,0
Paxta tolasi, ming t.	4,7	6,0	1,3
Tozalangan paxta yog'i mingtonna.	1,6	1,4	- 0,2
Shag'al – ming t.	14,9	24,8	9,9
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna	59,4	55,1	- 4,3
Tamaki – mln. dona	734,8	669,3	- 65,5
Piva – ming litr	338,0	833,0	495,0

2024-yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), 55,1 tonna (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 7,2 % ga) hamda 1,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (52,1 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

## Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

(2024-yil yanvar oyida)

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar oyida yirik korxonalar bo'yicha jami 207 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 50,0 % ga ko'paygan.



2024-yil

207 dona

2024-yil

150,0 %

2023-yil

138 dona

2023-yil

25,6 %

2022-yil

64 dona


2022-yil

26,6 %

## Avtobuslar ishlab chiqarish

(2024-yil yanvar oyida)

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar oyida 25 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,6 % ga ko'paygan.



2024-yil

25 dona

2024-yil

113,6 %

2023-yil

22 dona

2023-yil

22,0 marta

2022-yil

1 dona


2022-yil

16,7 %






## Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati ulushi 8,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 112,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 10,0 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 107,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 195,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar oyida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 1,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 57,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 4,9 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 131,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 96,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar oyida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 33,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 93,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 31,6 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 98,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 617,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 73,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 138,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 9,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 20,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 74,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,8 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 99,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 407,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 89,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 %, fizik hajm indeksi 94,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 58,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.





## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 41,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 129,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 15,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 102,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 %, fizik hajm indeksi 97,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 13,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 90,3 % .

Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 153,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 36,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 72,0 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni, fizik hajm indeksi 153,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 45,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 63,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi 181,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 32,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 154,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,2 % ni, fizik hajm indeksi 94,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 200,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 36,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 18,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	3 746,8	1 137,1	- 2 609,7
Issiqlik energiyasi, mln. gkal	1 163,7	1 122,4	- 41,3


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	3 183,0	4 805,2	1 622,2
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	7 982,8	8 066,5	83,7
Plastmassa chiqindilari, tonna	122,2	177,8	55,6


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % \*



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar



Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm



## Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023-yil 1-fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 057 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 219 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 20,1 %) Samarqand shahriga, 822 tasi (13,6 %) Urgut tumaniga, 629 tasi (10,4 %) Samarqand tumaniga, 458 tasi (7,6 %) Pastdarg'om tumaniga va 347 tasi (5,7 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

### Jami yangi tashkil etilgan

**63 ta**

2024-yil yanvar

**57 ta**

2023-yil yanvar

**128 ta**

2022-yil yanvar



### Jami faoliyat yuritayotgan

**6 057 ta**


2024-yil yanvar

**8 295 ta**

2023-yil yanvar

**8 074 ta**


2022-yil yanvar





## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 793,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 39,3 % ni tashkil etdi.

yanvar  
mlrd. soʻm



yanvar  
ulushi, %



■ mlrd. soʻm    ■ oʻsish surʼati, %